TUN VA TONG DIALEKTIKASINING DINIY TALQINI

Termiz davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi ***Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqola “tun” va “tong” dialektikasining madaniy ramziy jihatdan o‘rganilganligi, turrli tasvvufiy qarashlar, folklor adabiyotlardagi, madaniyatlardagi xilma-xil ma’nolari ochib berilgan. Musulmon olamidagi muqaddas kitob sanalmish “Qur’on”i Karimdagi keltirilgan “tun” va “tong dialektlarining ishlatilish o‘riinlari va ma’nolari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Tun, tong, dialekt, ramziy ma’no, madaniyat, folklor, tasavvuf, tasvir, Islom.

Tun tushunchasi madaniy va ramziy jihatdan ham o‘ziga xos mazmun kasb etib, bu turli tasavvuf va folklor madaniyatlarida xilma-xildir. Jumladan, turli madaniyatlarda tun sir, sehr va g‘ayritabiiy omillar bilan bog‘langan. Ko‘plab xalq ertaklari va afsonalarida turli mavjudotlar tungi tilsim tarzida tasvirlangan. Din va ma’naviyat sohasida ham tungi vaqt ko‘plab madaniyatlar uchun diniy ahamiyatga ega. Bu fikrlash, ibodat qilish va Alloh bilan muloqot qilish vaqti sifatida o‘z ahamiyatiga ega. Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimda tun va tong tasviriga oid o‘rinlar ko‘plab uchraydi. Ushbu o‘rinlar orqali Alloh taoloning yaratgan maxluqotlari, inson tajribasi hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘li borasidagi haqiqatlar ask etgan. Shu o‘rinda tun qachon, qaysi vaqtdan boshlanadi, degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Qur’oni Karimga binoan ushbu savol ko‘plab mulohazalar, mubohasalarga sabab bo‘lgan. Qur’oni Karimda ro‘za uchun tayin etilgan vaqtga binoan quyidagicha oyat keltiriladi: ***“Tong paytida sizga oq ip qora ipdan oydinlashguncha yeb-ichavering. So‘ngra ro‘zani kechasigacha batamom qiling[1]”(“Baqara” surasi, 187-oyat)***. Agar

[1] Qur’oni Karim. “Baqara” surasi, 187-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi

ro‘za uchun belgilangan vaqt kechasiga qadar davom etishi kerak bo‘lsa, unda tun aynan qachon boshlanadi? Uni ikki tushuncha asosida tahlil qilishimiz mumkin:

1. Birinchi tushunchaga muvofiq, tunni quyosh botishi(tunning boshlanishi) va quyosh chiqishi(tunning yakunlanishi) o‘rtasidagi davriy vaqt sifatida anglashimiz mumkin.
2. Ikkinchi tushunchaga ko‘ra, tun quyosh botgach osmondan barcha yorug‘lik izlari yo‘qolmaguncha boshlanmaydi va quyosh chiqishidan ilgari ko‘kda birinchi yorug‘lik izi voqe bo‘lishi bilan nihoyasiga yetadi.

Qur’oni Karimda tun quyosh botishidan boshlanib, quyosh chiqishi bilan yakunlanuvchi yaratiq ekanligini anglatuvchi ikkita aniq dalil mavjud. “Zumar” surasining 5-oyatida shunday deyiladi: “*Kechani kunduz ustiga o‘raydi, kunduzni kecha ustiga o‘raydi*[2]”. Demak, oyatga binoan tun quyosh botishi bilanoq boshlanadi va quyosh chiqishi bilanoq tugaydi. Demak, “Zumar” surasining beshinchi oyati tun boshlanish vaqtini ochiq-oydin aks ettirmoqda:

1) Kecha kunduz ustiga o‘raladi.
2) Kunduz kecha ustiga o‘raladi.

Biroq olimlar tomonidan kechaning boshlanishi xususida boshqacharoq fikrlar ilgari suriladi, ya’ni ularning fikriga ko‘ra, tunning boshlanishi osmondan yorug‘lik yo‘qolmaguncha va butunlay qorong‘i bo‘lmaguncha sodir bo‘lmaydi. Ularning ta’kidlashicha, osmonda yorug‘likning bo‘lishi bu kechasi emas, balki kunduzning bir qismi hisoblanadi. Olimlar quyosh botgach, yorug‘lik so‘nib, qorong‘i tushguncha(quyosh botganidan keyin taxminan 1.5 soat o‘tgach) ro‘za tutish muddati ekanligini haqidagi fikrlarni ilgari suradilar.

Bundan tashqari, “Haj” surasining 61-oyatida shunday deyiladi: ***“Zero, Alloh, albatta, kechani kunduzga kiritur va kunduzni kechaga kiritur[3]”.*** Kechaning kunduzga, kunduzning esa tunga qo‘shilishi tushunchasi kechaning ayrim qismlari yorug‘lik (quyosh emas) bo‘lishini, kunning bir qismi esa biroz zulmat (yorug‘lik yetishmasligi)

[2] Qur’oni Karim. “Zumar” surasi, 5-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[3] Qur’oni Karim. “Haj” surasi, 61-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi

bo‘lishini yana bir bor tasdiqlaydi. “Yosin” surasining 37-oyatida shunday deyiladi: ***“Ular uchun tun ham oyat(belgi)dir. Biz uni kunduzdan shilib olurmiz. Bas, ular birdan zulmatda qoluvchilardir[4]”.***

Kunduzgi yorug‘likning kechadan asta-sekin yo‘qolishi faqat quyosh botgandan keyingina sodir bo‘lishi mumkin, bu 36:37 ga ko‘ra, Alloh tomonidan tun deb belgilangan. Kechaning bu davrida kunduz butunlay qorong‘i bo‘lguncha undan asta-sekin tortib olinadi. “Hud” surasining 114-oyatida shunday deyiladi: “***Kunduzning ikki tarafidagi va kechaning bir qismidagi namozni to‘kis ado qil[5]***”.

Demak, dinimizning ustuni sanalmish Qur’onda kechaning boshlanishi quyosh botishi bilan sodir bo‘ladi.

Zulmat va yorug‘likning bir-biriga o‘zaro ta’siri imonlilar, taqvodorlar uchun yo‘l-yo‘riq va tafakkur etuvchilar uchun o‘ziga xos ko‘rsatma vazifasini bajaradi. Qur’oni Karimda, tun, ko‘pincha, Alloh taologa munojot etish vaqti sifatida ham tasvirlanadi. Qur’oni karimning “Ar-Rahmon” surasida “***Quyosh va oy hisobdadir. O‘t-o‘lan ham, daraxt ham sajda qilurlar[6]***”, deyiladi. Bu oyat orqali koinotning Alloh taolo tomonidan tartib berilganligini hamda uning uning yaratilishida Yaratganning ilohiy kuchi aks etganini anglashimiz mumkin.

Tun – bu fikr yuritish, Alloh yaratgan yaratiqlarni mulohaza qilish vaqtidir. Uning sokinligi Xudoga yanada bog‘lanish, insonning dunyoga nega yaratilganligini anglashga imkon beradi. “Inshiqoq” surasida shunday deyiladi “***Shafaq bilan qasamki, Kechasi va u o‘rab olgan narsalar bilan qasamki, Va to‘lin oy bilan qasamki, Albatta, sizlar tabaqama-tabaqa minasizlar[7]***”. Keltirilgan oyatga ko‘ra, Alloh taolo shafaq, kechasi hamda u o‘rab olgan narsalar, to‘lin oy bilan qasam ichmoqda. Alloh barcha yaratiqning egasi, borliq sultonidir.

Bundan tashqari, Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni Karimning boshqa suralarida ham tun tasviri o‘rin olgan. “Takvir” surasining 17-oyatida shunday

[4] Qur’oni Karim. “Yosin” surasi, 37-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[5] Qur’oni Karim. “Hud” surasi, 114-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[6] Qur’oni Karim. “Ar-rohman” surasi, 6-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[7] Qur’oni Karim. “Inshiqoq” surasi. www.ziyouz.com kutubxonasi

deyiladi: **“Qorong‘uligi-la kirib kelgan tun bilan qasam[8]”.** Tun insoniyatga Haq taolo tomonidan in’om qilingan ne’matlardan biridir. Uning qorong‘uligi bilan kirib kelishi butun dunyodagi narsalarning o‘zgacha holga kirishiga sabab bo‘ladi. Alloh taboraka va taolo tun vaqti, ya’ni kechaning kirib kelishi bilan ont ichmoqda. “Yosin” surasining 37-oyatida esa shunday deyiladi: **“Ular uchun tun ham oyat**(belgi)**dir. Biz uni kunduzdan shilib olurmiz. Bas, ular birdan zulmatda qoluvchilardir[9]”.** Ushbu oyat sharhiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tun tasvirida ham tafakkur qiluvchilar uchun o‘ziga xos belgi bor ekanligi haqidagi fikrlarga guvoh bo‘lamiz. Tunni yaratuvchisi yolg‘iz Alloh ekanligining dalili ushbu oyatda aks etmoqda. Biroq undan xulosa qilmaganlarga zulmat borligi oyat orqali aytilmoqda. “Oli Imron” surasining 190-oyati ham bevosita tun va kunning yerning yaratilishidagi ahamiyati xususidadir: “**Albatta, osmonlar-u yerning yaratilishida hamda kecha va kunduzning almashib turishida aql egalari uchun oyat**(belgi)**lar bor[10].** Nega tun va kun bir-biri bilan almashib ketmaydi yoki ularda hech qanday adashish yo‘q, sababi, ularni yaratgan Alloh o‘z qonun-qoidalari asosida tun va kunni doimo boshqarib turadi.

“U Zot sizga kechani-yu kunduzni, quyoshni-yu oyni beminnat xizmatkor qilib qo‘ydi. Yulduzlar Uning amri ila beminnat xizmatkordir. Albatta, bunda aql yurituvchi qavmlar uchun oyat(belgi)**lar bor[11]”,** deya ta’kidlangan “Nahl” surasining 12-oyatida tun dialektikasi ishtirok etgan bo‘lib, unda mazmunan barcha yaratiqlarning inson uchun beminnat xizmatkor sifatida yaratilganligi borasida so‘z boradi. “Muzammil” surasida ham tun ifodasi aks etgan o‘rinlar mavjud: **“Tunda (bedor bo‘lib, namozga) turing! Faqat ozgina (uxlashga vaqt qolsin!)[12]”**

Bundan tashqari, Hadisi shariflarda ham tun dialektikasiga keng o‘rin berilgan bo‘lib, unda tunning ahamiyati, tun vaqtida bajarilishi lozim bo‘lgan amallar xususida so‘z yuritiladi:

[8] Qur’oni Karim. “Takvir” surasi, 17-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[9] Qur’oni Karim. “Yosin” surasi, 37-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[10] Qur’oni Karim. “Oli Imron” surasi, 190-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[11] Qur’oni Karim. “Nahl” surasi, 12-oyat. www.ziyouz.com kutubxonasi
[12] Qur’oni Karim. “Muzammil” surasi. www.ziyouz.com kutubxonasi

Abu Muso Ash'ariy (roziallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam tunda qiroatimni eshitibdilar. Tong otganda u Zot: ***"Ey Abu Muso, bu tun qiroatingni eshitdim. Senga Dovud oilasi naylaridan biri berilgan ekan"*** *– dedilar. Shunda men:* ***"Ey Rasulullоh, agar shu yerda ekaningizni bilganimda, bundan ham chiroyliroq o'qigan bo'lardim"*** *– dedim. (Hokim, Ibn Hibbon va Bayhaqiy rivoyati)*[13]. Nasroniylik dinining muqaddas kitobi "Injil"da ham tun ifodasi ishtirok etgan o'rinlar mavjud bo'lib, ularning soni 54 tani tashkil etadi. Xususan:

Ibtido 1:5 ...Xudo yorug'likni kunduz, qorong'ilikni ***tun***, deb atadi. Kech kirib, tong[14]...

Ibtido 1:17 ...yerga yorug'lik bersin, kunduz va ***tun*** ustidan hukmronlik qilsin, yorug'likni qorong'ilikdan[15]...

Luqo 5:5 ...shunday dedi: — Ustoz, biz ***tun*** bo'yi astoydil harakat qildik, lekin[16]...

Luqo 6:12 ...ibodat qilgani toqqa chiqdi. U ***tun*** bo'yi Xudoga ibodat qildi[17]...

Qadimgi inson dunyoqarashida yorug'lik va zulmatning nisbati qanday bo'lganini aniq bila olmaymiz. Bilvosita, ibtidoiy odamlar uchun yorug'lik ong bilan qoplangan fazo – vaqtinchalik kontekstda ustunlik qilgan deb taxmin qilish mumkin. Insonni o'rab turgan tabiatdagi yorug'likning ustuvorligi Injildagi "*Nur bo'lsin*!" iborasida aks ettirilgan bo'lib, bu yorug'lik Xudoning in'omiga xos xususiyatni namoyon etadi. Kecha konsepsiyasining biologik jihatlari koinotning tuzilishi haqidagi ilmiy bilimlar bilan yuklangan zamonaviy inson ongi cheksiz zulmat kosmik okeaniga moslashishga, uni o'zlashtirishga va undan o'z mavjudligining ontologik asoslarini izlashga majbur bo'ladi. E.V.Dyukov "Bibliya"da ushbu postulatning tasdig'ini topib, zulmatning ustuvor ekanligiga e'tibor qaratadi. "*Eski Ahd kitoblarining birinchisida,* – deb eslaydi olim, – *uchinchi nom berilgan mavjudot hamma narsani o'rab olgan zulmat edi. Ammo agar Osmon va Yer yaratilish harakatlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda zulmat boshidanoq mavjud edi. Unda va u bilan bog'liq holda "Injil" matnida uchinch*

[13] www.mehrob.uz
[14] Injil. Ibtido 1:5. www.ziyouz.com kutubxonasi
[15] Injil. Ibtido 1:17. www.ziyouz.com kutubxonasi
[16] Injil. Luqo 5:5. www.ziyouz.com kutubxonasi
[17] Injil. Luqo 6:12. www.ziyouz.com kutubxonasi

yaratilish – Nur paydo bo‘ladi va shundan keyingina hukmron zulmat “tun” nomini oldi[18]”.

Bundan tashqari, tun dialektikasi bugungi kunda o‘zida zamonaviy yondashuvlarni ham aks ettirmoqda. Bu bevosita ilm-fan bilan bog‘liq sanalib, uning xilma-xil mazmuni qaysi fan sohasiga oid ekanligi bilan farqlanadi. Xususan, tarjibalarga ko‘ra o‘tkazilgan sun’iy yorug‘lik tizimida olib borilgan ixtiroga ko‘ra, tun kunduz va kechaning farqlanishiga yordam beruvchi muhim omil sifatida baholanadi. Uni qo‘llash orqali hayvonlarning ham xatti-harakatlarini hamda ularning migratsiyasini o‘zgartirish mumkin bo‘lgan ekologik oqibatlar yuzaga keladi. Bundan tashqari, inson salomatligi doirasida ham ushbu tadqiqot tez-tez qo‘llanmoqda.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, tun va tong fursati o‘ziga xos ijtimoiy yondashuvni ham namoyon etishini qayd qilishimiz o‘rinlidir. Bu, asosan, kishilarning ijtimoiy turmushida, faol hayot munosabatlarida hamda jamoaviy aloqalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vaqtlar odamlarning o‘zaro turmush tarzini shakllantirishda, ularning o‘zaro yoki jamoaviy aloqalarni yuzaga keltirishda asos vazifasini bajaradi. Umummadaniy qadriyatlar, an’analarning bevosita yuzaga kelishida ham tun va tong motivining o‘rni beqiyos. Umummilliy madaniy tadbirlar, millatlar hayotida muhim bo‘lgan vositalarni amalga oshish uchun tun va tong yaxshi fursat sanaladi. Tun va tongning ijtimoiy xususiyatlari odamlarning jamoaviy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Tun ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va hissiy tajribalarga e’tibor qaratishga yordam beradi, tong esa yangi imkoniyatlar yaratadi va ijtimoiy faoliyatni davom ettirishga turtki beradi. Har ikki vaqt davri ham odamlar o‘rtasidagi aloqalar va ijtimoiy dinamikani shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur’oni Karim. www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Injil. Ibtido. www.ziyouz.com kutubxonasi

3. Injil. Luqo. www.ziyouz.com kutubxonasi

4. www.mehrob.uz

5. www.google.com/Bibliya